

IJORCES

**INTERNATIONAL JOURNAL
OF CONFERENCE SERIES ON EDUCATION
AND SOCIAL SCIENCES.**

**PUBLISHER: ÇORUM: O CERINT -INTERNATIONAL
ORGANIZATION CENTER OF ACADEMIC RESEARCH**

IJORCES

**International journal of conference series on education
and social sciences. (Online)**

January 2024

Science Editor: **Cetin Avcı**
(*Kadir Has University*)

Copyright © 2024

By Çorum: Ocerint -International Organization Center of Academic Research

All rights reserved.

Available at ijorces.org

Published:

Çorum: Ocerint -International Organization Center of Academic Research

ISSN 2717-7076

Bursa

Bursa, Turkey

Editorial Board Members

Prof. **Hakan Mete Dogan**, Tokat Gaziosmanpasha University, Turkey

Prof. **Afsun Sujayev**, Institute of Additive Chemistry of the ANAS, Azerbaijan

Prof. **Nadir Mammadli**, Azerbaijan Architecture and Construction University, Azerbaijan

Prof. **Munevver Sokmen**, Konya Food and Agriculture University, Turkey

ELSEVIER



SSRN
Electronic Journals

Universal
Impact Factor



BURUN, PARANASAL SINUSLAR VA BURUN- HALQUMNING XAVFSIZ O'SMALARI BO'LGAN BEMORLARDA ESHITISH FUNKTSIYASINING HOLATI

Lutfullayev G'.U.

Yunusova N.A.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, O'zbekiston

Eshitish qobiliyatini yo'qotish- bu polietiologik kasallik bo'lib, ko'pincha bir nechta sababchi omillarning kombinatsiyasidan kelib chiqadi. Eshitish naychasining faringeal ochilishning yaqinida joylashgan o'smalar uchun erta namoyon bo'ladigan otologik belgilar bu: quloq va eshitish naychasi tomonidan bo'lishi mumkin. Eshitish naychasining obstruktiv disfunktsiyasi - eshitish qobiliyatini yo'qotishning eng keng tarqalgan sabablaridan biri bo'lib, burun va burun- halqum neoplazmalari tufayli eshitish naychasining o'tkazuvchanligining mexanik buzilishlarga olib keladi. Burun- halqumni to'liq va har tomonlama tekshirmasdan, eshitish naychasining funktsional holatini aniqlamasdan, eshitish qobiliyati haqida noto'g'ri tashxis qo'yishga sababchi bo'ladi. Bugungi kunga qadar, burun va burun- halqum o'smalariga tashxis qo'yish va davolashdan keyingi eshitishdagi o'zgarishlar haqida juda ham kam ma'lumotlar bor.

O'smalarning xalqaro gistologik tasnifiga ko'ra (VOZ, No 19) burun bo'shlig'i, paranasal sinuslar va burun-halqumning xavfsiz o'smalarining quyidagi guruhlar kiradi:

1.Xavfsiz epiteliy o'smalari: papilloma; o'tish davri hujayrali papilloma (silindrsimon hujayrali papilloma, nafas olish epiteliysidan papilloma): a) teskari; b) ekzofitik; adenoma; onkositoma (oksifil adenoma); pleomorfik adenoma (aralash o'simta).

2.Yumshoq to'qimalarning o'smalari: gemangioma, gemangioperitsitoma, limfangioma, neyrofibroma, neyrilemmoma (shvannoma), miksoma, fibroksantoma, yosh angiofibroma.

3.Suyak va tog'ay o'smalari: xondroma, osteoma, ossifikatsiya qiluvchi fibroma.

4.Aralash o'smalar: teratoma, meningioma, melanotik neyroektodermal o'sma (melanotik prognoma) va boshqalar (glioma, kraniofaringioma).

5.O'simtaga o'xshash jarohatlar: fibro-edematoz polip, Tornvald kistasi, psevdopiteliomatoz giperplaziya, nazofarengial bodomsimon bezning gipertrofiyasi.

Yuqorida ko'rsatilgan klassifikatsiyaga asosan burun polioplari va sinonasal traktning epiteliyal papillomasi ko'pincha bir biriga o'xshash klinik belgilar va simptomlari bilan namoyon bo'ladi. Burun, paranasal sinuslar va oldingi bosh suyagi asosi anatomik jihatdan yaqinligi sababli, bu hududlardagi kasalliklarini alohida ko'rib chiqilish mumkin emas. Yallig'lanish va neoplastik kasalliklarni, shuningdek, burun bo'shlig'i, paranasal sinuslar yoki bosh suyagining oldingi qismidagi kasalliklarni ajratishni iloji yo'q, chunki ko'plab patologiyalar subregionlarning bir nechtasiga ta'sir qiladi. Burun- halqum neoplazmalari, xordomalar kamdan-kam uchraydi va uzoq asemptomatik davr, ularni yallig'lanish kasalliklari sifatida o'ziga xos bo'lmagan belgilar tufayli tashxis qo'yish qiyin hisoblanadi. Ushbu turdagi neoplazmalar uzoq muddatli yallig'lanish turiga kiradi, ayniqsa, kasallikning "atipik" shakli mavjud bo'lib, onkologik hushyorlikni talab qiladi. Bemorlarda ko'pincha mahalliy bosh og'rig'i, burun bekilishi, eshitish pasayishi yoki yo'qolishi, kranial nervlarning shikastlanishi bilan bog'liq belgilar, ayniqsa diplopiya kuzatiladi. Burun- halqumning yuqori qismdagi o'smalari ko'pincha bir yoki bir nechta kranial nervlarning falaj bo'lishi aniqlangan. Patologiyasining klinik ko'rinishi uning anatomik xususiyatlari bilan belgilanadi, o'simtaning joylashishiga va uning hajmiga bevosita bog'liq. Shishlarining dastlabki belgilaridan biri quloq belgilaridir: eshitish qobiliyatini yo'qotish,



quloq bekilishi va tinnitus. Ko'pgina hollarda, jarayon bir tomonlama, zararlangan tomonda joylashgan bo'ladi. Burun va burun- halqum o'smalari bo'lgan bemorlarda eshitish buzilishining dastlabki bosqichlari (I va II darajalar), asosan, tovush o'tkazuvchanligi kuzatilgan. Ushbu toifadagi bemorlar eshitish naychasining disfunktsiyasi yuzaga keladi, bu timpanik bo'shliqda ekssudat mavjudligi va yevstaxit bilan namoyon bo'ladi. Operatsiyadan keyingi davrda, mexanik sabablarni bartaraf etgandan so'ng, ularning ko'pchiligi eshitish funksiyasini tiklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Batsakis JG. The pathology of head and neck tumors. Nasal cavity and paranasal sinuses. Part 5. Head Neck surgery. 1980;2:410-419. doi: 10.1002/hed.2890020510.

2. Nonepithelial tumors of the nasal cavity, paranasal sinuses, and nasopharynx. A clinicopathologic study. XIV: Chordomas.

Perzin KH, Pushparaj N. Cancer. 1986 Feb 15;57(4):784-96. doi: 10.1002/1097-0142(19860215).

3. О.Е. Верещагина, С.А. Карпищенко, Д.А. Алексеева, О.А. Станчева, Ю.А. Роднева, К.А. Халилова Тактика ведения пациентов с первично выявленным новообразованием носоглотки. Клинические случаи

4. Кобилова Ш.Ш., Лутфуллаев Г.У., Ортиков А.А. Носовые, ушные, неврологические симптомы и сравнительная оценка методов диагностики доброкачественных опухолей носоглотки// Ж. Проблемы биологии и медицины - 2020, №5 (122), -С.60-63.

5. Lutfullaev U.L., Kobilova Sh.Sh., Izomitdinova F.N., Khalilov M.O., Khomidov R.A., "Research journal of trauma and disability studies" Audiological Indicators in Neoplasms of the Nose, Paranasal Sinuses and Nasopharynx article, p 87-90.